

O'ZBEK TILI IZOHLI LUG'ATLARIDA HARBIY TERMINLARNING BERILISHI, LEKSIKOGRAFIK TALQINLAR

Ihom XOLMURATOV,

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti tadqiqotchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878526>

Annotasiya: *Ma'lumki o'zbek tili izohli lug'atlarida harbiy terminlarni umumiy aralash holatda ko'rishimiz mumkin. Bu o'z navbatida soha tadqiqotchilarining izlanishlarida bir qancha chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Ushbu maqolada harbiy atamaga oid izohli lug'atlarni tuzishda konstruktiv (qismlarga bo'lish orqali alfbo tartibini berish) usulni qo'llanilishining o'ziga xosligi haqida hamda tartiblashga oid takliflar ilgari surilgan.*

Kalit so'zlar: *leksika, terminologik lug'atlar, harbiy terminalogiya, so'z qurilishi, bir ma'noli, sintaktik, semantic*

Аннотация: *известно, что в толковых словарях узбекского языка мы видим военные термины в общем смешанном состоянии. Это, в свою очередь, вызывает некоторую путаницу в исследованиях полевых исследователей. В данной статье выдвигаются предложения об уникальности применения конструктивного (придание алфавитного порядка путем деления на части) метода составления толковых словарей по военному термину, а также по сортировке.*

Ключевые слова: *лексика, терминологические словари, военная терминология, словообразование, однозначное, синтаксическое, семантическое*

Annotation: *it is known that in explanatory dictionaries of the Uzbek language we can see military terms in a general mixed state. This in turn causes some confusion in the research of researchers in the field. In this article, suggestions have been put forward about the specificity of the use of a constructive (giving an alfbo order by dividing into parts) method in the construction of annotated dictionaries of a military term, as well as on ordering.*

Keywords: *lexicon, terminological dictionaries, military terminology, word construction, monosyllabic, syntactic, semantic*

Harbiy atamalar bu belgilangan harbiy atamalarning (so'zlar, iboralar va boshqalar) rasmiylashtirilgan tizimi bo'lib, ularning har biri aniq belgilangan ma'noga ega bo'lib, qo'llanish doirasi aniq va ilmiy asoslangan [1]. Eng to'liq va keng tarqalgan harbiy atamalar idoraviy va unga bo'ysunuvchi normativ hujjatlar, qonun hujjatlari, shuningdek, harbiy ensiklopediyalarda berilgan.

Jahon tilshunosligida soha terminologiyasida kasbga oid til birliklari tushunchasi bilan bog'liq leksik-semantik xususiyatlarni aniqlashga qaratilgan bir qator muammolar ilmiy tadqiqot ob'yekti bo'lib kelmoqda. Bugungi kunga kelib, kasbiy soha tilini o'rganish yangi bosqichga ko'tarildi. Biroq, kasbiy sohaga oid til birliklarini mavzu bo'yicha yoki boshqa kichik guruhlar asosida tasniflash tamoyillarini hamda ularga xos alohida tizimlararo munosabat turlarini aniqlash, shuningdek, ushbu til birliklarining o'ziga xos funktsional xususiyatlarini belgilashga

doir masalalar hanuz o‘z yechimini kutmoqda. Shu nuqtai nazardan, ushbu sohada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga qo‘yiladigan asosiy talab milliy til tizimida kasbiy sohaning shakllanish usullarini xorijiy tajribalar bilan uyg‘unlashtirgan holda o‘rganish va ularning semantik-funksional mohiyatini aniqlashga oid optimal metodlarni tadqiq etish soha taraqqiyotini ta‘minlaydigan muhim omillardan hisoblanadi.[2] Harbiy atamalar elementlari harbiy lug‘atning asosini tashkil etadi, ular rasmiy harbiy atamalardan farqli o‘laroq, uning norasmiy ekvivalentlarini o‘z ichiga olishi mumkin (masalan, “tank”, “zirhli transport vositasi”, “piyoda jangovar mashina”, “o‘ziyurar” o‘rniga “qurol”) vositasi va shu kabilar[1]. Qoida tariqasida, harbiy ishlarning barcha sohalarini o‘z ichiga olgan harbiy terminologiya ilmiy fikrning zamonaviy rivojlanish darajasiga mos keladi va amaldagi nizomlarda va rasmiy hujjatlarda mustahkamlangan harbiy tushunchalarni aks ettiradi. Ilmiy va texnikaviy taraqqiyot yutuqlari bilan bog‘liq bo‘lgan harbiy ishlarning evolyutsiyasi harbiy atamalarga yangi atamalarni kiritadi, ulardan eskisini yo‘q qiladi yoki mavjudlaridan foydalanish davriyligini o‘zgartiradi. Harbiy atamalar ko‘pincha oddiy lug‘at bilan, boshqa bilim sohaları yoki boshqa tillardan qarz olish orqali to‘ldiriladi bu qonunchilik tomonidan yangi va yoki eskirgan tushunchalarni bekor qilish bilan tartibga solinishi mumkin. Zamonaviy sharoitda harbiy atamalarni armiya, flot, aviatsiya va boshqa davlatlar va boshqa davlatlar miqyosida, shuningdek, milliy tashkilotlarning qurolli kuchlari (harbiy-siyosiy birlashmalar) miqyosida birlashtirishga katta e‘tibor berilmoqda. Buning uchun ko‘plab davlatlar va mamlakatlarning harbiy vazirliklari va huquqni muhofaza qilish organlari vaqti-vaqti bilan ixtisoslashgan ma‘lumotnomalarni nashr qiladilar [2].

Terminologik tadqiqotlarda terminlarning asosiy lisoniy belgilari xususida ikki xil qarash mavjud: birinchi navbatda, terminlarning nominativligi, ikkinchidan, uning tushuncha bilan bog‘liq ekanligi ta‘kidlanadi.[3] Termin mohiyatining bunday ikki xil tushunilishi terminlar bilan boshqa so‘zlarning o‘zaro munosabatini to‘g‘ri farqlay olishni qiyinlashtiradi. Ma‘lumki, o‘zbek tilida leksemalar xilma-xil usullar bilan hosil qilinadi. Bular quyidagilardan iborat: a) affiksial; b) fonetik; v) kompozitsion; g) abbreviatsion; d) semantik. Shu o‘rinda aytish mumkinki, keyingi yillarda akad. A.Hojiyevning tadqiqotlarida so‘z yasalishi deganda faqat affiksatsiya usuli tan olinib, qolganlari so‘z yasash usuli sifatida inkor etilmoqda (albatta, asosli ravishda).[4] Sh.Dolimov tomonidan tuzilgan “Harbiy atamalarning qisqacha izohli lug‘ati” jamlanmasida harbiy sohaga oid 1570 dan ortiq atamalarning[5] izohini keltirib o‘tadi. Lug‘at “alfbo” tartibida tuzilgan bo‘lib, sohaga oid atamalarning aksariyat iste‘moldagi qismiga alohida urg‘u beriladi. Mazkur lug‘atda xalqaro, milliy va harbiy xavfsizlik, zamonaviy urush va harbiy harakatlarga oid tushunchalar

keltirilgan bo‘lib, uning asosiy mazmuni xalqaro harbiy-siyosiy, harbiy-diplomatik atamalar hamda harbiy xavfsizlik, qurolli kuchlarni strategik va operativ jihatdan qo‘llash, qurolli kuchlarning qurilishi va qo‘llanilishini ta‘minlashga doir aksariyat davlatlarda qo‘llaniladigan harbiy-texnik atamalarga berilgan izoh va ta‘riflardan iborat. Korpus lingvistikasida zamonaviy yangi lug‘at tuzish usullari keng qo‘llanilayotgan bo‘lib “elektron lug‘at” jamlanmalari shular jumlasidandir. Bugungi kunda harbiy atamalarga oid lug‘atlarni tuzishda quyidagi usuldan foydalanish soha mutaxassislariga bir qancha qulayliklar paydo qladi.

Harbiy terminalogiyaga oid an’anaviy atamalarni tartiblashda quyidagi konstruktiv usuldan foydalanish lozim:

- 1) Qurol —yaroq nomlari;
- 2) Xizmat jarayonida qo‘llaniladigan signal so‘zlar;
- 3) Texnikaga oid atamalar izohi;
- 4) Harbiy sohaga oid ilmiy atamalar izohi.

Bu usul orqali an’anaviy “alfbo” tartibidagi lug‘at tuzish usuludan voz kechmaymiz, uni yuqorida keltirib o‘tilgan guruhlar tarkibida “alfbo” tartibida joylashtiramiz. Bu o‘z navbatida lug‘at tuzuvchiga qo‘shimcha funksiya yuklashi tabiiy hol, ammo soha tadqiqotchilari, talabalar, hamda qiziquvchilarga kerakli atamani topishga aniqlik kiritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Виноградов В.В. Вступительное слово // Вопросы терминологии (Материалы Всесоюзного терминологического совещания). – М.: Наука, 1961. - С. 6.
2. ERKINOV SUHROB. Harbiy kasbga oid lisoniy birliklarning sistem-funksional xususiyatlari (ingliz tili materiallari asosida)// – Samarqand. 2020. 4-b.
3. Реформатский А.А. Что такое термин и терминология? // Вопросы терминологии (Материалы Всесоюзного терминологического совещания). –М.: Наука, 1961. - С. 47.
4. Hojiyev A. O‘zbek tili so‘z yasalihi tizimi. – T.: O‘qituvchi, 2007. –B. 7;
5. O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalihi nazaridagi masalalari. – T.: Fan, 2010. –B. 140.
6. Sh. Dolimovning. Harbiy atamalarning qisqacha izohli lug‘ati. –T.: 2007. b-5.
7. O‘RAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik an’anasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materiallari. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.
8. Omanova, M. (2024). Nizomiy Ganjaviy merosining alisher navoiy ijodiga ta’siri. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(20), 24-27.
9. Kadirova M.N. Technological solutions and innovative digital tools. Netherlands. <https://staff.tiame.uz/storage/users/829/articles/nyOCfZLWmrPLJiMMJmugxLcoqGUmIvB9cP2PPxaq.pdf>
10. Omanova, M. (2024). Bahouddin Naqshband to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks etgan asarlar. “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari”. – Toshkent: 139-146.